

## ADABIYOTNI O'ZGA FANLAR BILAN BOG'LQLIKDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ortiqova Gulshoda

Namangan davlat universiteti

O'zbek tili yo'naliши 4-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada adabiyot darslarida fanlararo aloqaning turlari, ularning ahamiyati va xususiyatlari haqida so'z borgan. Misollar va namunalar bilan asoslashga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** fanlararo aloqa, integratsiya, integrallashgan ta'lif, adabiyot – tarix, adabiyot – tilshunoslik, adabiyot – musiqa, adabiyot – tabiatshunoslik, adabiyot – tasviriy san'at

### ABSTRACT

This article talks about the types of interdisciplinary communication in literature classes, their importance and features. An attempt has been made to justify with examples and examples.

**Keywords:** interdisciplinary communication, integration, integrated education, literature - history, literature - linguistics, literature - music, literature - natural science, literature - visual arts

### АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о видах межпредметной коммуникации на уроках литературы, их значении и особенностях. Сделана попытка обосновать примерами и примерами.

**Ключевые слова:** межпредметная коммуникация, интеграция, интегрированное образование, литература - история, литература - языкознание, литература - музыка, литература - естествознание, литература - изобразительное искусство.

Ma'lumki, adabiyot ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Shu sababdan bu turkumga kiruvchi fanlar bilan doimiy uzviy aloqada bo'ladi, rivojlanadi va ular vositasida yanada chuqurroq hamda mukammalroq o'rganish imkoniyati yuzaga keladi. Bundan tashqari adabiyotni tabiiy, aniq fanlar, shuningdek, san'atning juda ko'plab soha, yo'nalishlari bilan aloqadorlikda o'rganish ham yaxshi samara beradi.[1.17]

Adabiyotni o‘zga fanlar bilan bog‘liqlikda o‘qitishning ko‘plab ijobiy va yutuqli taraflari bor. Quyida ularning har birini misollar asosida ko‘rib chiqamiz.

**Adabiyot – tarix** fanlarining aloqasi. Bunda o‘quvchi badiiy asarlar voqeligidagi berilgan jarayonlarni qanchalik tarixiy haqiqat ekanini bilgan holda chuqurroq anglab yetadi va tahlil qila oladi. Aytaylik, 10-sinf Adabiyot darsligida keltirilgan Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” romanini o‘qish jarayonida Amir Temur va uning avlodlari bilan bog‘liq ravishda tasvirlangan voqealar tarixiy haqiqat yoxud yozuvchining ijodiy mahorati, ya’ni to‘qima voqealar ekanligini tushunadi. Tarixdan olgan bilimlari bilan o‘zaro qiyoslab ko‘radi. Natijada bu asar voqealari, mazmuni o‘quvchining yodida uzoq muddat saqlanib qoladi.

**Adabiyot – tilshunoslik (ona tili)** fanlarining aloqasi. Darhaqiqat, adabiyot va ona tili fanlari doimo birga uchraydi, doimo bir-birining qo‘lidan tutib yuradi go‘yo. Bu ikki fanni, albatta, o‘zaro aloqada o‘rganish lozim. Chunki tilni o‘rganish uchun asosiy manba adabiyot bo‘lsa, adabiyotni o‘qitishda doimo tilga murojaat qilinadi. Jumladan, biror badiiy matnni, parchani lingvistik jihatdan tahlil qilishda, shubhasiz, til qoidalaridan foydalanamiz. Mamlakatimiz ta’lim tizimiga ko‘ra Ona tili va Adabiyot fanlarnini ayni bir o‘qituvchi tomonidan o‘tilishi ko‘plab imkoniyat va qulayliklar beradi. Masalan, 9-sinf Adabiyot darsligida Oybekning “Navoiy” romani o‘qish va tahlil qilish uchun berilgan. Bunda Husayn Boyqaroning “Ne qarorga keldingiz?” – degan savoliga Navoiy “Asl mushkulot shu qarordadir”, - deya javob beradi.[2.187] Ya’ni rad javobini shu tarzda ifodalaydi. Bu kabi nozik ma’nolarni to‘g‘ri anglay olish uchun o‘quvchida tilda so‘zlarning qanday ma’no attenkalarini tashiy olishi haqidagi tushunchalar bo‘lishi zarur.

Adabiyot va Ona tili fanlarining o‘zaro aloqasi haqida gap ketganda shuni aytib o‘tish kerakki, bugungi kunda butun dunyo tomonidan tan olingan va e’tirof etilayotgan Finlandiya ta’lim tizimida bu ikki fanga mazmunan bitta fan sifatida qaraladi. Maktab darsliklari shunga muvofiq tuziladi. Masalan, buni o‘zimizning ta’lim sistemamiz nuqtai nazaridan tushuntiradigan bo‘lsak, 8-sinf Adabiyot darsligidan boshlab o‘quvchilar mumtoz adabiyotining ko‘plab janrlari bilan tanishishadi va yuqori sinflarda bu jarayon davom etadi. Finlandiya ta’lim tizimiga ko‘ra bu jarayon Ona tili darsligida ham o‘z aksini topmog‘i lozim. Masalan, 8-sinf Ona tili darsligi “Ona tili. Mumtoz adabiyot” deya nomlanadi va darslikdagi mashqlar, grammatik topshiriqlar uchun asosiy manba mumtoz adabiyot namunalari asosida tayyorlanadi.[3.] Natijada o‘quvchilar misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishadilar. Adabiyot darslarida ma’lum bir g‘azalning mazmunini anglab yetgan, tushungan holda, Ona tili darslarida uning garmmatik tomonlarini o‘rganadilar.

Yuqoridagi Finlandiya ta’lim tizimidagi jarayonlarni 5-sinf o‘quvchilarida sinovdan o‘tkazdik. 5-sinf Ona tili darsida “Urg‘u va uning turlari” mavzusi o‘tilganda,

o‘quvchilarga tarqatma materiallar berildi. Ularda 5-sinf Adabiyot darsligidan olingan topishmoqlar yozilgan edi. Topshiriq sifatida esa topishmoqning javobini topish va unda yashiringan so‘zning urg‘usini qaysi bo‘g‘inda ekanini aniqlash aytildi. O‘quvchilar bu topshiriqni qiziqish bilan bajarishdi. Hatto adabiyotga qiziqmaydigan o‘quvchilar ham topishmoq javobini topish uchun darslikni ochib qarashga majbur bo‘lishdi. Natijada o‘quvchilar Adabiyot darslaridagi bo‘shliqni to‘ldirdi va grammatikaga oid yangi mavzu yuzasidan mashq bajardilar. Bundan ko‘rinadiki, Adabiyot va Ona tili darslarini o‘zaro aloqada o‘qitish katta foyda beradi.

**Adabiyot – musiqa** fanlarining aloqasi. Ma’lumki, inson xotirasi har birimizda turlicha, ya’ni kimdadir vizual xotira (ko‘rish orqali) yaxshi bo‘lsa, kimdadir eshitish orqali eslab qolish osonroq kechadi. Adabiyot darslarida she’rlarni hamma o‘quvchilar birday eslab qolavermaydi. Shunday paytlarda shu she’r asosida bastalangan qo‘sinqi o‘quvchilarga eshittirish ham she’rni oson esda qolishi uchun asqotadi. Masalan, 8-sinf Adabiyot darsligida Alisher Navoiyning bir nechta g‘azallari tahlil uchun berilgan. Bunda o‘quvchilar g‘azallarni yod olishlari, mazmunan tahlil qila olishlari bir muncha qiyin. Shu kabi holatlarda xonandalar tomonidan ijro etilgan qo‘sqliarni eshitish orqali asarlarni o‘rganish ham mumkin. Masalan, hozirgi davr yoshlariga mos ravishda Ulug‘bek Rahmatullayev ijrosidagi “Mubtalo bo‘ldim sanga” qo‘srig‘ini tinglash, u orqali original badiiy parcha va qo‘sinq matnidagi o‘zaro farqli o‘rinlarni aniqlash orqali ham o‘rgansa bo‘ladi. Bundan tashqari darsni mavzu mazmuniga mos va aloqador bo‘lgan qo‘sinq bilan boshlash ham o‘quvchilarning psixologik holatlariga va kayfiyatlariga ijobiy ta’sir qiladi.

**Adabiyot – tasviriy san’at** fanlarining o‘zaro aloqasi. adabiyot darslari davomida nafaqat nazariy darslar, balki amaliy ishlash ham mavzularni o‘zlashtirish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat o‘qish, yozish bilangina bilim olinsa, bu mashg‘ulot bora-bora zarikarli bo‘lib boradi va natijada o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishi ham susayib ketadi. Vaqtqi bilan darslarni noan’anaviy tarzda o‘quvchiga erkinlik bergen holda o‘tilishi ham dars o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining oshishiga sabab bo‘ladi. Aytaylik, mavzuga mos ravishda adabiyot darsini san’atning har xil turlari, xususan, tasviriy san’at bilan bog‘liq holda o‘tilishi ham darslar sifatiga va ko‘rinishiga rang-baranglik beradi. Masalan, 9-sinflarda Abdulla Qodiriy tarjimai holi va “Otkan kunlar” romanidan parcha hamda 7-sinflarda “Mehrobdan chayon” romanidan parchalar berilgan. Bunda Qodiriyning badiiy obraz yaratish va tasvirlash mahoratining yuksak darajada ekanini inobatga olgan holda tasviriy san’at bilan aloqada unga oid topshiriq bajarish orqali tasvir jarayonlari yaxshiroq esda qoladi. Badiiy parchada quyidagi tasvirlardan foydalaniib iqtidorli o‘quvchilar Kumushbibining portretini chizishlari va buning vositasida tasvirdagi unsurlarni yodda saqlab qolishlari mumkin.”Uning zulfi paryostiqning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda

to‘zg‘ib, quyuq jinggala kiprik ostidag‘i tumqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilganda, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... qop-qora kamon, o‘tib ketgan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lg‘an oydek g‘uborsizoq yuzi biroz qiziqliqg‘a aylanganda, kimdandir uyalgan kabi... shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan latif burnuning o‘ng tomonida tabiatning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilgan qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o‘turdi. Sariq supoh atlas ko‘ynakning ustidan uning o‘rtacha ko‘kragi biroz ko‘tarilib turmoqda edi. Turib o‘lturg‘ach boshini bir silkitdi-da, ijirg‘nib qo‘ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to‘zg‘ig‘an soch tolalari o‘rab olib jonso‘z bir suratka kirgizdi. Bu qiz suratida ko‘ringan malak qutudorning qizi – Kumushbibi edi...”[2.165.] bu kabi tasvirlarni asarda ko‘plab uchratish mumkin: Otabek, Zaynab, O‘zbekoyim portretleri... bularni o‘qigach, o‘quvchi nafaqat xayoliy tasavvurida, balki qog‘ozda ham yuqoridagi tasvirlarni jonlantirsa, amaliy ahamiyati katta bo‘lishi, shubhasiz.

**Adabiyot – tabiatshunoslik fanlarining aloqasi.** Avvallari Adabiyot darslarini, asosan, ijtimoiy fanlar bilan aloqada o‘qitilgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib nafaqat tabiiy va aniq fanlar bilan, balki o‘quvchilarda yoshlikdan boshlab ekologik madaniyatni shakllantirish maqsadida tabiatshunoslik va boshqa hayotiy amaliy sohalar bilan bog‘liqlikda ham olib borilmoqda. Jumladan, joriy 2022-2023-o‘quv yilda umumta’lim maktablarining 6-7-sinf o‘quvchilari uchun darsliklar tubdan yangilandi. 4K tamoyili asosidagi yangi darsliklarda ham adabiyot va tabiatshunoslikning hamkorligiga alohida ahamiyat qaratilgan. Mavzu va boblar so‘ngida fanlararo aloqada ishslash uchun alohida qo‘srimcha topshiriq va loyiha ishlari berilgan.

Xususan, 10-sinf Adabiyot darsligida Abdulhamid Cho‘lponning tarjimai holidan tashqari “Kecha va kunduz” asarining dastlabki boshlang‘ich qismlari tahlilga olingan. Unda quyidagi bahor tasviri mavjud: “Har yili bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi... tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklari qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g‘amli yuzlari kuldilari, o‘zlari horg‘in-horg‘in oqsalar-da, bo‘shalgan qul singari erkinlik nash’asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog‘ochlarning uchlarida ko‘klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash’asini beradi. Bultur ekilib, ko‘p qoshlarni qoraytirgan o‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqdi... muloyim qo‘llarda ivib, suvga aylangandan keyin go‘zal ko‘zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko‘rar ekan bu ko‘kat!” [4.24]

Yuqoridagi badiiy parchani tahlil qilishda o‘qituvchi tomidan “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanish mumkin. Ya’ni ushbu parcha orqali “Tabiatdagagi qanday jarayonlar obrazli tarzda ifodalanyapti?”, “Yozuvchining bahor faslidagi tabiat

tasvirini yoritishi qanchalik haqiqatga yaqin?” kabi savollar berishi bilan tahlil qilinadi. Bu kabi savolarga o‘quvchilar tabiatshunoslik fani bo‘yicha olgan bilimlaridan kelib chiqib javob beradilar va shu paytda obrazlilik va ilmiy haqiqat o‘rtasidagi farqlarga guvoh bo‘ladilar. Shuningdek, bu metodni va adabiyot – tabiatshunoslik hamkorligini Hamid Olimjonning “O‘rik gullaganda”, Usmon Nosirning “Yur, tog‘larga chiqaylik” she’rlarini, O‘tkir Hoshimovning “Oq marmar, qora marmar” hikoyasini tahlil qilishda ham yo‘lga qo‘yish ahamiyatlidir. Chunki bu asarlarda ham tabiat tasviriga va ijodkorning badiiy tarzda ifodalash mahoratiga duch kelamiz.

Ushbu maqolada sanab o‘tilgan adabiyot bilan o‘zaro aloqadorlikdagi fanlarni yana ko‘plab davom ettirish mumkin. Masalan, adabiyotning biologiya, botanika, zoologiya, zooinjeneriya, falsafa, psixologiya kabi fanlar bilan integratsiyalashuvi ham mavjud. Xulosa qilib aytganda, adabiyotni integratsiyalashgan ta’lim tarzida o‘qitish juda ko‘plab ijobiy natijalarini beradi. Avvalo, o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, dunyoqarashi va fikrlash doirasini kengaytiradi, o‘zi bevosita ko‘rgan, eshitgan, o‘qigan voqeа-hodisalarini boshqalariga taqqoslab analiz qilishga o‘rgatadi, dars davomida yuzaga keladigan charchoq, zerikish kabi holatlarga barham beradi, mavzularni yaxshi tushunish va oson eslab qolishda muhim hisoblanadi. Shunday ekan, integrallashgan ta’lim har bir pedagogning birinchi raqamli dars o‘tish uslubi bo‘lishi lozim. Ana o‘shandagina zamon talablariga to‘la javob beradigan, mustaqil fikrli, keng dunyoqarashli avlodlarni tarbiyalay olamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Adabiyot o‘qitish metodikasi [Matn] / o‘quv qo‘llanma: Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova.: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018-yil. – 352 bet
2. Adabiyot (Matn) 9-sinf uchun darslik/ Q.Yo‘ldoshev va boshqalar. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2020. – 289 bet
3. kun.uz saytidan Baxtiyor Mengliyev bilan suhbatdan
4. Adabiyot (Matn) 10-sinf uchun darslik 2-qism/ B.To‘xliyev va boshqalar. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 bet